



**DAVLAT SEKTORIDAGI TASHKILOTLAR FAOLIYATINI
IQTISODIY TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI**

Kuliboyev Azamat Shonazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori v.b.

e-mail: azamatkuliboyev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tadqiqotda Davlat sektoridagi tashkilotlar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning ahamiyati ochib beriladi. Iqtisodiy tahlilning mazmuni va uning usullari keltirilgan. Davlat sektori tashkilotlarini iqtisodiy tahlil qilishning moslashtirilgan koeffitsiyentlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: budget, davlat sektori, davlat budgeti, iqtisodiy tahlil, iqtisodiy tahlil usullari, moddiy va mehnat resurslari, moslashtirilgan koeffitsiyentlar, tashkilot.

Milliy iqtisodiyotning samarali faoliyat yuritishidagi eng muhim shartlardan biri – davlat budgetidan noishlab chiqarish sohalarini saqlab turish uchun ajratilgan mablag'lardan oqilona va tejamkor foydalanish hisoblanadi. Shu munosabat bilan budget hisobidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar faoliyatini kompleks tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruvning tahliliy funksiyasi xo'jalik yurituvchi subyektning real iqtisodiy holati, budget mablag'larini tejash imkoniyatlari hamda davlat tomonidan ajratilgan mablag'larning maqsadli ishlatilishi haqida operativ, joriy va strategik axborot tahlilini ta'minlashi lozim.

Budget ijrosining shaffofligini ta'minlash maqsadida budget tasnifi, budget hisobining Yagona schyotlar rejasi, moliyaviy rejalashtirish tartib – taomillari, budget ijrosi bo'yicha hisobotlar takomillashtirilmoqda. Daromad va xarajatlarni





rejalashtirish budget moliyasini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Shu boisdan, budget mablag'lari bilan ta'minlanadigan tashkilotlarning iqtisodiy holatini tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy tahlilning mazmuni – bu tahlil qilinayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini haqidagi iqtisodiy ma'lumotlarni chuqur va har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lib, tashkilotning ishlab chiqarish dasturlarini bajarishni ta'minlash, ularning bajarilish darajasini baholash, zaif tomonlar va ichki xo'jalik zaxiralarini aniqlash maqsadida optimal boshqaruvin qarorlarini qabul qilishga yo'naltirilgan.

Shu bilan birga, davlat sektorida tashkilotlarning faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish va moliyaviy holatini baholash juda cheklangan darajada amalga oshiriladi.

Aslida, davlat sektoridagi tashkilotlarning moliyaviy barqarorligi muammosi budget sohasini isloq qilish va budget mablag'lari qisqarishi sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Biroq, budget sohasida an'anaviy iqtisodiy tahlil usullarini qo'llashda bir qator cheklovlar mavjud:

birinchisi, iqtisodiy tahlil asosida olinadigan ko'rsatkichlar budget sohasidagi subyektlar hisob-kitoblari va hisobotlarida umumqabul qilinganlaridan sifat jihatidan farq qiladi. Masalan, budget hisobida aktivlar moliyaviy va nomoliyaviy turlarga ajratiladi, moddiy va aylanma mablag'larni ajratishda iqtisodiy ustuvorlik hisobga olinmaydi.

ikkinchisi, an'anaviy moliyaviy tahlilning asosiy koeffitsiyentlarini hisoblashda o'z va qarz kapitalining qiymat ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Budget sohasi subyektlari o'z kapitaliga ega emas. O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) "Budget hisoboti"ga muvofiq, ularning balansining passiv qismida faqat ikki bo'lim mavjud: "Majburiyatlar" va "Sof aktivlar/kapital".



uchinchisi, moddiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni baholashning asosiy ko'rsatkichlari, odatda, foya va tushum o'rtasidagi rentabellik ko'rsatkichiga asoslanadi. Ammo budget sohasidagi subyektlar faoliyatining xususiyati tufayli bunday ko'rsatkichlar unchalik ahamiyatli emas. Shu sababli, moliyaviy barqarorlikni baholash uchun qo'llaniladigan an'anaviy koeffitsiyentlar budget sohasi subyektlarining buxgalteriya hisobotlari xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilishi lozim. Shunday moslashtirilgan koeffitsiyentlarga quyidagilarni kiritish mumkin (1-rasm).

Moslashtirilgan koeffitsiyentlar

- Yuklama koeffitsiyenti
- Xizmat oluvchilar sonining mutlaq o'sishi koeffitsiyenti
- Xizmatlar sifati dinamikasi koeffitsiyenti
- Budget faoliyati rejasini bajarish koeffitsiyenti
- Daromad keltiradigan faoliyat rejasini bajarish koeffitsiyenti
- Budgetdan moliyalashtirilishi o'sish sur'ati koeffitsiyenti
- Pullik xizmatlar daromadining umumiyligi moliyalashtirishdagi ulushi koeffitsiyenti
- Pullik xizmatlar daromadining o'sish sur'ati koeffitsiyenti
- Pullik xizmatlar bo'yicha bitta tashrif uchun o'rtacha daromad koeffitsiyenti
- Pullik xizmatlar daromadining ekspluatatsion (jaryon) xarajatlarga nisbati koeffitsiyenti
- Bo'limlar bo'yicha budget moliyalashtirish o'sish sur'ati koeffitsiyenti
- Kommunal xizmatlar xarajatlari o'sish sur'ati koeffitsiyenti
- 1 m² uchun ijara dan tushgan daromad o'sish sur'ati koeffitsiyenti



1–rasm. Davlat sektori tashkilotlarini iqtisodiy tahlil qilishning moslashtirilgan koeffitsiyentlari¹

Yuqoridagi rasmda Davlat sektori tashkilotlarini iqtisodiy tahlil qilishning moslashtirilgan koeffitsiyentlarini davom ettirish mumkin, bu ro'yxat to'liq emas. Iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifalariga qarab, barcha iqtisodiy subyektlar hisoboti va hisobotida mavjud an'anaviy hisoblash amaliyotlari qo'llanilishi mumkin.

Davlat sektoridagi tashkilotlarning faoliyatini obyektiv baholash, budget va budgetdan tashqari mablag'lardan foyadalanish darajasini aniqlash, keyingi yillardagi tashkilot faoliyatini rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ham tahlil ma'lumotlariga asoslaniladi. Shuning uchun ham davlat sektoridagi tashkilotlar faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilishda, birinchi navbatda tashkilot faoliyatining xususiy tomonlariga, ikkinchi navbatda tahlil qilish ulullari va uslublariga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti “Budget hisoboti” (3–sonli BHS, 2019–yil 18–yanvar, 3124–son).
2. Alikulov A.I. Davlat sektorida iqtisodiy tahlil. Darslik. –T.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2023. – 308 bet.
3. Бариленко В.И., Кайро О.В., Кузнецов С.И., Плотникова Л.К. Анализ финансовой отчетности. Учебное пособие. – Москва: КНОРУС, 2023. –234 с.
4. Пардаев М.К. Иқтисодий таҳлил назарияси. Дарслик. – Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи”, 2021. – 588 б.
5. Рахимов М.Ю. Молиявий ҳисобот таҳлили. Дарслик. – Т.: “Nihol print”, 2021. – 326 б.
6. Subramanyam, K.R. Financial statement analysis. Eleventh edition. Published by McGraw–Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, 2020

¹Muallif tomonidan ilmiy – tadqiqotlar asosida tuzilgan